

MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Suyunov Dilmurod Xolmurodovich

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi iqtisod fanlari doktori professori

Islomova Farogat Nuriddinovna

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va uning liberallashtirish jarayonlari tahlil qilinadi. Davlatning iqtisodiy islohotlari, bozor munosabatlariga o'tish jarayonidagi strategik vazifalar, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va xorijiy investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, raqobatbardoshlikni oshirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Milliy iqtisodiyot, liberallashtirish, iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlari, xususiy sektor, investitsiyalar, raqobatbardoshlik, innovatsiyalar, makroiqtisodiy barqarorlik.

Annotation: This article analyzes the development of the national economy and the processes of its liberalization. Special attention is given to the state's economic reforms, strategic tasks during the transition to market relations, mechanisms for supporting the private sector, and the creation of a favorable environment for foreign investment. Additionally, measures aimed at increasing competitiveness, promoting innovative activities, and ensuring economic stability are highlighted.

Keywords: National economy, liberalization, economic reforms, market relations, private sector, investments, competitiveness, innovations, macroeconomic stability.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish va uni liberallashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bular nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish, balki iqtisodiy tizimning samaradorligini ta'minlash, xususiy sektorning faolligini kuchaytirish va jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda "Yangi O'zbekiston–2030" strategiyasi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini

yangi bosqichga olib chiqish, bozor institutlarini chuqurlashtirish va aholi farovonligini oshirishda asosiy dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Strategiyada yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, raqamli iqtisodiyotni kengaytirish, xususiy sektor ulushini ko‘paytirish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish kabi yo‘nalishlar birinchi darajali ahamiyat kasb etadi

Ma’lumki, 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib unda ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo‘llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim shartidir. Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgariylashini ta’minlaydigan zamonaviy innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, o‘tkazilgan tahlil ishlab chiqarishni modernizatsiya, diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlar lozim darajada olib borilmayotganini ko‘rsatdi. Jumladan: aholining oliy ta’lim bilan qamrab olinganlik darajasi past; oliy ta’lim muassasalari o‘quv rejalari va dasturlarini, talabalarni qabul qilish kvotasi miqdorini belgilashda, moliyaviy mablag‘larni taqsimlashda mustaqil emas;

Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish Strategiyaning bosh maqsadidir. Bosh maqsadga erishishda Strategiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilga borib Global innovatsion indeks reytingi bo‘yicha jahonning 50 ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; barcha darajada ta’lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tiziminining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta’minlash; ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta’lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish; innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag‘lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalardagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish; boshqaruvning zamonaviy usullari

va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish; mulkchilik huquqlari himoyasini ta'minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlatxususiy sherikligini rivojlantirish asosiy ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bunda iqtisodiy islohotlarning mazmuni va maqsadlari Iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi — samarali bozor iqtisodiyotini shakllantirish, davlatning iqtisodiyotdagi rolini qisqartirish va xususiy mulk ustuvorligini ta'minlashdir. Bunda soliq tizimini soddalashtirish, valyutani erkin konvertatsiya qilish, bank-moliya tizimini isloh qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Xususiy sektor va tadbirkorlikni rivojlantirish, Xususiy mulk va kichik biznes milliy iqtisodiyotda "drayver" sifatida qaraladi. Davlat tomonidan ularni qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari berish, litsenziyalash va ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini yengillashtirish kabi choralar ko'rilmoqda. Xususan, Investitsion muhit va xorijiy sarmoyalarni jalb etish bunda Iqtisodiyotni liberallashtirish xorijiy sarmoya uchun qulay sharoitlar yaratishni talab qiladi. Qonunchilik bazasini mukammallashtirish, investitsiyalarni himoya qilish va iqtisodiy erkin zonalar tashkil etish muhim rol o'ynaydi. Innovatsiya va raqobatbardoshlikni ta'minlashda Zamonaviy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish uchun innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy etish talab etiladi. Ilmiy-tadqiqot institutlari, startaplar va texnoparklar faoliyatini rag'batlantirish bu sohada muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va uni liberallashtirish mamlakatning barqaror rivojlanishi va aholi farovonligini ta'minlashda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Bu jarayonda iqtisodiy siyosatning yaxlitligi, islohotlarning izchilligi va jamoatchilik bilan muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ham iqtisodiy islohotlar davom ettirilishi orqali O'zbekiston iqtisodiyotining global raqobatbardoshligi yanada oshishi kutilmoqda.

REFERENCES

1. Suyunov D. X. Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash // tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79-83.
2. Suyunov D. X. Scientific and theoretical approach to the implementation of digital transformation of corporate governance in joint-stock companies // Actual

problems of business development and entrepreneurship in the digital economy, international scientific and practical conference. 2022.12.23

3. Suyunov D. X.Kichik va o'rta biznesda yoshlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari: loyihaviy yondoshuvlar va samaradorlikni baholash //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – S. 79.

4. D.D. Suvanova. Digitalize enterprise business processes methodological approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. Volume 1, Issue 9, December, 2023 ISSN (E): 2938-3811.

5. D.D. Suvanova The digitalization of business processes itself scientific approaches to the characteristics. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. Volume: 19 December 2023.

6. D.D. Suvanova. Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. Elektron nashr.. 2024-yil avgust. № 8-son. 277- sahifa.

7. Suyunova D.D. Rakamli korporativ boshkaruvni joriy etishning ilg'or xorij rivojlangan mamlakatlar tajribasi va ijobiy tomonlarini joriy qilish. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2552/2376>. 2025, fevral.

8. Suyunova D.D. Rakamli iktisodiyot tizimi iktisodiyotni rivojlanishining elektron mexanizmi. European science international conference: analysis of modern science and innovation. <https://esiconf.org/index.php/AMSI/article/view/2559/2375>. 2025, fevral.

9. Suyunova D.D. Factors affecting the digitalization of corporate management in joint joint stock companies and scientific approaches to risk assessment. "Ekonomika i sotsium" №11(126). https://www.iupr.ru/files/ugd/b06fdc_5772198b03034ea1b82d7241321acec8.pdf, index.true. 2024, noyabr.

10. Suyunova D.D. Korporativ boshqaruvning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasiga ilmiy qarashlar. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 7-son, UO'K: 35.073.6. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss.7-pp.393-402>. 2024, iyul.

11. Suyunova D.D. Corporate in joint stock companies ways to use digital technologies to improve management. European journal of research development and sustainability (EJRDS). Vol. 4 no 09, issn: 2660-5570. <https://scholarzest.com/index.php/ejrd/article/view/3825/3055>. 2023, sentyabr.

12. D.X.Suyunov O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlash mexanizmlari. Science and innovation 2 (Special Issue 13), 486-488.2023.

13. D.X. Suyunov Theoretical principles of improving the modern corporate control system in joint stock companies International journal of economic perspectives. 16 (11), 90-97.2022.

14. D.X. Suyunov, S.E. Elmirzayev Korporativ boshqaruv. Darslik–Toshkent 2022.450 bet.

